

TALABALAR BILAN IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUHITGA KIRISHISH

Oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim tarbiya jarayonlari samarali amalga oshirish uchun talabalar bilan o'qituvchilar o'rtasida uzluksiz ta'sir o'tkazish xukm surishi lozim. Bu ta'sir o'tkazish umumta'lim maktabi o'qituvchisi va o'quvchisi o'rtasidagi, yoki litsey va kollej o'qituvchisi va o'quvchilari o'rtasidagi munosabatlardan farq qiladi, bu bir tomondan ular o'rtasidagi yosh xususiyatlariga, ijtimoiy-huquqiy mavqelariga bog'liq bo'lsa, auditoriyada «ustoz-muallim» va «shogird-tinglovchi», tarzida, auditoriyadan tashqarida do'stona, aka-uka, xatto «ota-bola» munosabatlariga yaqin do'stona, dilkash bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Lekin, shu vaqtgacha oliy maktab psixologiyasi, undagi talaba va professor-o'qituvchilar o'rtasidagi psixologik muxit chuqur taxlil qilib chiqilmagan.

Oliy o'quv yurtidagi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari talabalarning boshqa ijtimoiy guruhlar bilan muloqotga kirishish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy etuklikning jadal surat bilan ro'yobga chiqishidir.

Talabalik davri o'spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo'lib, 17-21 (25) yoshni o'z ichiga oladi va o'zining xususiyatlariga ega. Mazkur pallada o'spirin o'ziga ruhiy inqiroz yoki tanglikni boshidan kechiradi, kattalarning turli rollarini bajarishga o'rinish ko'radi, turmush tarzining yangi jihatlariga ko'nika boshlaydi.

Talabaning maktab o'quvchisidan muhim farqi shundaki, u faqat tinglovchi-o'quvchigina emas, mustaqil ilm, hunar oluvchidir (student-lotincha «mustaqil shug'ullanuvchi degan ma'noni anglatadi).

Talabalarga mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini o'zi tashkil qilish, o'z-o'zini boshqarish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va xokazolarni o'rgatishdir. Bu vazifalarni amalga oshirishning asosiy omilimonologik ma'ruzadan dialogik ma'ruzaga-muloqotga o'tishdir.

Psixologlarning tadqiqotlari shaxs hayot tajribasini egallashda unda o'zligini anglash vujudga keladi, jumladan, shaxsiy hayotining mazmunini anglashi, aniq turmush rejalarini tuzishi, kelajak hayot yo'lini belgilashi va xokazolarni amalga oshirishini ko'rsatadi. Talaba asta-sekin mikrogruphning notanish sharoitlariga ko'nikib boradi, o'zining hak-huquqlari va majburiyatlarini bila boshlaydi.

Talaba 17-19 yoshda ham o'z xulqi va bilish faoliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmaydi va shunga ko'ra xulq motivlarining asoslanmagani, uzoqni ko'rolmaslik, ehtiyotsizlik kabi xolatlar ro'y beradi. Bu yoshda ba'zan ayrim salbiy hatti-harakatlar ko'zga tashlanadi.

Talabalik yillarida yoshlarning hayoti va faoliyatida o'zini-o'zi kamolotga etkazish jarayoni muhim rol o'ynaydi. Ideal «men» ni real «men» bilan taqqoslash orqali o'zini-o'zi boshqarishning tarkibiy qismlari amaliy ifodaga ega bo'ladi. Talaba nuqtai-nazaricha, ideal «men» ham muayyan mezon asosida etarli darajada tekshirib ko'rilmagan, shuning uchun ular goxo tasodifiy, g'ayritabiiy xis etilishi mukarrar, binobarin, real «men» ham shaxsning haqiqiy bahosidan ancha yiroqdir. O'quv yili boshida talabada ko'tarinki kayfiyat, oliy o'quv yurtiga kirganidan zavq-shavq tuyg'usi kuzatilsa, muayyan qonun va qoidalar bilan yaqindan tanishish natijasida uning ruhiyatida keskin tushkunlik ro'y berishi ham mumkin. Bizningcha, oliy maktabda tarbiya ishlarini rejalashtirishda, ta'lim jarayonida talabaga o'ziga xos munosabatda bo'lish mazkur davrning muhim shartlaridan biridir.

Yuqorida aytilganlardan qat'iy-nazar yigit va qizlarni oliy o'quv yurtiga qabul qilish ularda o'z kuchlari, qobiliyatlari, aql-zakovatlari, ichki imkoniyatlari va irodalariga qat'iy ishonch tug'diradi, ana shu ishonch o'z navbatida to'laqonli hayot va faoliyatni uyushtirishga umid tuyg'usini vujudga keltiradi. Bu fikrlarni B. G. Ananov rahbarligida o'tkazilgan tadqiqot natijalari ham tasdiqlaydi.

Talabalar o'quv faoliyati muvaffaqiyatining muhim sharti oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, diskomfort, (noqulay, noxush) tuyg'usini bartaraf qilish, mikromuxitda yuz beradigan ziddiyatlarning oldini olishdan iboratdir.

Ammo talabalarning ko'pchiligi o'quv faoliyatini boshqarishning umumlashgan usullarini ta'riflash, anglash, faoliyatning harakatlarini qanday tartibda amalga oshirishni tasavvur qilishdan ancha yiroqlidir. Xatto ayrim xato fikrlar ham uchraydi, rejalashtirish, konspektlashtirish, ta'limiy usullardan foydalanishga qo'yiladigan umumiy talabalar aniq ko'rsatib berishda qiynaladilar, muammo doirasidan chetlashadilar va

xakozo.

Uchraydigan shu qiyinchiliklarni mohiyati va shakliga ko'ra quyidagi uch guruhga ajratish:

1. Bilishdagi qiyinchiliklar: o'quv materiallarining mazmun va kulani jihatdan keskin farqlanishi, o'qitishning turli shakl va usullari (ma'ruza, seminar, kollokvium, sinov, maxsus kurs va boshqalar), seminar va ma'ruza materiallarining murakkabligi, ular uchun material olish manbalari xilma-xilligi, mustaqil bilim olish malakalari etishmasligi va boshqalar.

2. Ijtimoiy-psixologik qiyinchiliklar: atrof muxit va hayot sharoitining o'zgarishi; hayot va faoliyatning barchajabhalarida mustaqillikka o'tilishi, irodaviy zo'r berish, qobiliyat, aqliy imkoniyatlar bo'yicha qat'iyatsizlik-masalan, sessiyalarda, o'qishdan xaydalishdan cho'chish, qo'rqish, xavfsirashning paydo bo'lishi.

3. Kasbiy qiyinchiliklar: Oliy maktab shart-sharoitlariga moslashish jarayonini noto'g'ri tasavvur qilish, mutaxassislik-ixtisoslik amaliyotidan unumli foydalanmaslik, nazariy buyumlar bilan amaliyotning ajralib qolganligi, talabalarning professiogrammadan xabarsizligi yoki professiogramma talablariga javob beradigan kasbiy fazilatlariga ega emasligi.

Oliy maktab muhitiga moslashishda talabalarning o'ziga xos tipologik va yosh xususiyatlari, aqliy imkoniyatlari, aql-zakovati, ahloqiy fazilatlarini ma'lum darajada rol o'ynaydi.

Qiyinchilikning asosiy sabablari talabalar o'quv faoliyatining to'g'ri usullarini bilmasligi, aqliy mehnatda kuch va imkoniyatlarni bir tekis taqsimlay olmasligidan iborat bo'lib, bular aqliy zo'riqishning negizi hisoblanadi. Talabalarda vujudga kelgan aqliy zo'riqish tasodifiy psixologik hodisa emas, uning zamirida shaxsiy o'quv faoliyatini oqilona boshqarish o'quvining zaifligi yotadi.

Oliy o'quv yurti talabalarini ko'pincha o'quv materiallarini o'zlashtirishda bu faoliyatni tasodifiy boshqarishga harakat qiladilar. Bunda muayyan materiallar mantiqiy harakat bilan eslab qolinsa, qolganlari mutlaqo diqqatdan uzoqlashtiriladi. Natijada ular ma'ruzaning bir qismini tinglaydilar, uning mohiyatini bazo'r anglaydilar, uni konspektlashtirishga ulgurmaydilar. O'quv yili mobaynida ana shu xolning davom etishi imtixon sessiyalarini talaba uchun qattiq sinovga aylantiradi. Shunga ko'ra oliy o'quv yurtining asosiy vazifalaridan biri talabani o'quv materialining asosiy manbalari bilan ishlashga o'rgatishdan, uning mustaqil bilish faoliyatini tashkil qilishdan, uni o'zini boshqarish usullari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Talabalar oldiga o'quv faoliyatining tarkibiy qismlari bilan bog'liq muayyan qoidalariga rioya qilib xalq etiladigan masalalar ko'riladi:

1) Qanday yo'l bilan auditoriyada to'g'ri o'qish va o'qitish mumkin?

2) Qay yo'sinda auditoriyadan tashqari vaqtlarda mustaqil faoliyatning umumlashgan usullaridan foydalansa bo'ladi?

3) Ma'ruzada talabani aqliy faoliyati uchun optimal shart-sharoitlar qanday yaratiladi?

4) Amaliy va seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik darajasini aniqlash va ifodalash mumkin?

5) Talabani imtixon va sinovlarga tayyorgarlik saviyasini aniqlash imkoniyati bormi? va xakozo.

Hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlarida qo'llanib kelinayotgan ma'ruzalarni shartli besh turga ajratish mumkin: axborot beruvchi, yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi, metodik-uslubiy, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi.

Tajribada talabalarning seminar mashg'ulotlaridagi faoliyatini quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Talabani seminar chiqishining muayyan maqsadga yo'nalgani;

2. Talaba ma'ruzasining rejasi: rejalashtirish, masalani birlamchi va ikkilamchi alomatlariga ajratishi, bibliografiyani to'g'ri tuzilishi va xakozo.

3. Talabani xulqi: o'rinli baxslashuvi, to'g'ri javobi, materialni chuqurtaxlil qilishi, dalilni qayta bayon etishi, o'z nuqtai-nazari mavjudligi, ixcham va lo'nda taxlil; ma'ruzaning zerikarliligi, bo'shligi.

4. O'zaro aloqa: talabani kursdoshlariga tanqidiy, samimiy, e'tirozli munosabati, tez muloqotga kirishish imkoniyatlari.

5. Talabani mashg'ulotni ishonch bilan, mutaxassislar bilan yakunlashi, tengdoshlari bilimini boyitishi yoki aksincha;

Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi psixologik holatlarga e'tibor berish lozim:

1. Matn va birlamchi manbalar bo'yicha muhim va nomuhim belgi hamda alomatlarini ajratish yoki mavxumlashtirish;

2. O'zlashtirilayotgan o'quv materiallarini o'z vaqtida taxlil qilib borish va umumlashtirish.
3. Talaba o'quv materialini idrok qilishi uchun aqliy faoliyatning barcha jabxalari bo'yicha yoT-yo'riqlar berish.
4. O'qituvchi nutqidan xayolan ilgari lab ketib, uning yakunlovchi fikrini oldindan faxmlay bilish va boshqalar.

Shunday qilib, oliy maktabda ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini olib borilishi, o'qituvchin- ing bunga munosabati, usuli talabalarning o'z ustlarida ishlashlariga, o'ziga talabchanlikni oshirish- da katta ahamiyatga egadir.

Yuqorida aytganimizday, o'qituvchi va talaba hamkorligi taTim samaradorligining muhim omilidir. Oliy maktabda hamkorlikdagi faoliyatning shakllanishi, uning ijtimoiy-psixologik jiha- tini tashkil qilish, har qanday faoliyatni, shu jumladan, o'quv faoliyatini tashkil qiluvchi tarkibiy qismlami o'rganish so'nggi o'n yil ichida amalga oshirila boshladi.

B. F. Lomov faoliyatini tahlil etishning umumiy psixologiyada qabul qilingan sxemasini ko'rib chiqib, bu faoliyatni bajaruvchi shaxsning boshqa shaxslar bilan hamkorligi, boshqacha ko'rilishi zarurligini ta'kidlab o'tadi. Yakka shaxs faoliyatining psixologik taxlili faoliyat sub'ektining boshqa odamlar bilan aloqasini mavxumlashtiradi. Lekin bu mavxumlashtirish nihoyatda muhimligidan qat'iy-nazar, o'rganilayotgan xodisalarni bir tomonlama yoritish imkoniyatini beradi.

O'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda, asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratilgan, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bay- on qilingan.

A. V. Petrovskiy jamoadagi shaxslararo munosabatlar faoliyatdan kelib chiqishini o'rganib, ta'lim jarayonida o'qituvchining talabalar bilan hamkorligini tashkil qilib faqat ularning muloqotga ehtiyojini qondirish vositasigina emas, balki o'quv materialini o'zlashtirishning ham vositasi ekan- ligini tasdiqlagan edi.

Bu muammoga boshqacharoq yondoshgan A.A.Bodalev o'qituvchi va talaba munosabati ularning samarali, hamkorligini vujudga keltirish uchun qulaylik yaratishi zarur deb hisoblaydi.

Hamkorlikdagi mahsuldor faoliyatni psixologik jihatdan o'rganishni V. Ya. Lyaudis bosh- chiligidagi psixologlar guruhi amalga oshirdi. Ushbu nazariyaga binoan, o'quv faoliyatining shak- llanishi fan asoslarini o'zlashtirishning negizi emas, balki shaxsning ijtimoiy-madaniy qadriyatlar- ini egallash jarayonidir. Bunga asosan talabaning «yaqin kamolot zonasi»nigina emas, «perspektiv rivojlanish zonasi»ni ham loyixalash mumkin.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakat- lar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning maxsul- talabalar mustaqil xolda ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir.

Hozirgi psixologiyada hamkorlikning ettita shakli mavjud, ular quyidagilardan iborat:

- 1) faoliyatga kirish;
- 2) mustaqil harakatlar (o'qituvchi va talaba o'zicha);
- 3) o'qituvchi harakatni boshlab beradi va bunga talabani jalb qiladi;
- 4) taklid harakatlari;
- 5) madad harakatlari (o'qituvchi oralik maslahatlarni berib boradi);
- 6) O'z-o'zini boshqarish harakatlari (o'qituvchi maqsadni belgilab beradi va oxirgi natijani baholashda qatnashadi);
- 7) O'zini-o'zi qo'zg'atuvchi va uyushtiruvchi harakatlar.

Oliy maktab psixologiyasida talaba shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tekshirish, o'qituvchi va talaba hamkorlikdagi va alohida faoliyatlarini tekshirish, talaba shaxsi psixologik xususiyatlarining ko'pgina tomonlarini tekshirish, diagnostika qilish bo'yicha bir muncha tajri- ba ham to'plangan. Bulami kasb ta'limi psixologiyasi bo'yicha tashkil etiladigan amaliy seminar mashg'ulotlarida sinab ko'rish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаева, Н. (2023). Эффективные методы организации научной деятельности студентов. in Library, 22(2), 113-125. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/21747>
2. Шермухамедова, Нигинахон Арслановна. "Некоторые суждения Абу-Насра аль-Фараби о соотношении логики и грамматики." Credo new 2 (2002): 10-10.